

## O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHI

*Xoliqova Irodaxon Raxmatovna*

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 25-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** O'smirlik davri oziga xos murakkab davr bo'lib, aksar bu yosh vakillarida agressiv xulq-atvor kuzatilishi tabiiy holatga aylangan. Maqola agressiya kishilar o'rtasidagi kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan biri bo'lib, shaxslararo munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Agressiyaning maqsadi xususan jabrlanuvchiga azob yetkazish hamda agressiyani boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida qo'llash hisoblanadi. Maqolada o'smirlik davrida agressiv xulq ko'rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tajovuskor, Inqiroz, Agressiya, stress. Agressiv xulq, Instinkt.

### KIRISH.

Agressiv xulq - shaxsning ma'naviy buzulikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta'sir o'tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik "autoagressiya" (bunday holat shaxsdagi patologik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo'ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq kuchli bo'ladi.

O'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda dolzarb masala hisoblanadi. Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulqatvorni o'rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi bilan ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. jismoniy, verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri o'smirlarda agressiyaning kelib chiqishi, oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan va adolatsizlikka uchrash natijasida turli xil jinoyatlarga qo'l urish kabi illatlarning namoyon bo'lishi. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxorlik, sabr-toqat, mehr kabi hislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan tasir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xattiharakatlar o'smirlarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Agressiyaning odatiy namoyishlari quyidagilar hisoblanadi. nizo chiqarish, bosim o'tkazish, majburlash, tilining yomonligi, negativ baholash, hamla qilish yoki jismoniy

kuchni qo'llash bo'lsa, yashirin shakllari aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadiga befarqlik, o'ziga ziyon yetkazish va o'z joniga qasd qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Agressiya boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'latvorning har qanday shakli degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'diradi. «Agressiya» atamasi kop hollarda g'azab kabi salbiy histuyg'ular, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurufot bilan assotsiatsiyalanadi. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajavuzkorlik, «autoagressiya» (bunday holat shaxsdagipatalogik o'zgarishlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi)deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishidir. G'arbdagi ayrim mafkuraviy mazrkazlar jahondagi yosh rivojlanish yo'liga kirgan mamlakatlarga information usullarda tazyiq o'tkazish orqali o'zining agressiv xulqini namoyon etmoqda.

Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlarga ajratadi.

Ixtiyoriy agressiya-insonning boshqa bir kishiga anglangan tarzda zarar yetkazishi hisoblanadi.

Instrumental agressiyada-inson o'z oldiga boshqaga zarar yetkazishni maqsad qilib qo'ymaydi. Bu agressiya yuzaga kelgan vaziyatni hal etishda boshqa usulni qo'llashga imkon bo'lmagan holda yuzaga keladi.

R.Beron va D.Richardsonlar agressiyani qurbonga nisbatan maqsadli ravishda zarar yetkazishdir, deya ta'riflaganlar.

*Reaktiv agressiya*-o'z hayoti,erkinligi, g'ururi, o'zining yoki boshqaning moddiy boyligini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar, istaklar frustrasiyasi namoyon bo'ladi: rashk va xudbinlik; qasos; Ishonchning yo'qolishi (hayotga, sevgiga, yaqin insonlariga).

*Kompensatoragressiya*—zo'ravonlik, destruktivlik hayotda o'zi uchun muhim bo'lgan dolzarb ehtiyojlar qondirilmasligi holatlarini kompensatsiya qilish: *Sadizm* (boshqani o'z hukmi, irodasiga bo'ysundirish); nekrofiliya; surunkali zerikish va depressiya.

*Verbalagressiya*—salbiy hislarni baqirish, janjalqilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish.

**Agressiyaning asosiy sabablari:-** alkogol ichimliklarni suiiste'mol qilish, shuningdek, asab tizimini buzadigan dorilar, bu kichik holatlarga tajovuzkor noto'g'ri javob reaksiyasini rivojlanishiga olib keladi;- shaxsiy muammolar, hal etilmagan

shaxsiy hayot (hayot sheringining yo'qligi, yolg'izlik hissi, sababchi intim muammolar, keyinchalik tajovuzkor holatga aylanib, har bir muammo haqida gap ketganda paydo bo'ladi);- bolalikda olingan ruhiy zo'riqish (ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning yomonligi tufayli bolalikda olingan nevrozlar).

A.Bandura va R.Uolter o'smirlar va ularning oilaviy sharoitlari o'rtasidagi ijtimoylashish aloqasini o'rganib chiqib, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi uchta asosiy xususiyatni ajratganlar:

- ✦ qaramlik (jinsiy-shaxsiyat) munosabatlarini o'rnatishga uning tayyorgarligi;
- ✦ vijdonining rivojlanish darajasi;
- ✦ agressiyaga nisbatan motivatsiyaning kuchi.

Mualliflar fikricha, oila samarali ijtimoylashishi uchun minimal sharoitlarni yaratishi zarur. Birinchi asosiy shart bog'liqlik motivatsiyasini qo'llab quvvatlash, bu orqali bola qiziqish, e'tibor va atrofida qilarni ma'qullash xohlashini o'rganadi. Ikkinchi zarur shart - bu ketma-ket talablar va ta'qiqlar shaklida "ijtimoylashishning bosimi" (bu vaziyatning sharti, ota-onalarning o'zi ijtimoiy me'yorlarni ajratadilar). Aksincha, xulq-atvorning yomon shakllari oilada ota-ona muhabbatiga ehtiyojning frustratsiyasi, doimiy jazolashni qo'llash (yaxshi xulqatvorni rag'batlantirish usullari ustidan uning ustivorligi) natijasida o'rnatiladi, ota-onalar tomonidan qo'yilgan talablarning mos emasligi, ota-ona tomonidan agressiyani ko'rsatish.

Psixologiya agressiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni aniqlaydi: *Instinkt*. Agressiya odamning qiyin ekologik sharoitlarda omon qolish qobiliyatiga ta'sir qiladi, bu o'z hududi uchun kurashish, oziq-ovqat resurslari uchun kurashish, naslni himoya qilish va genofondni ko'paytirishga yordam beradi. Agressiya energiyasi inson tanasida ishlab chiqariladi, asta-sekin yig'ilib, oxir-oqibat chiqib ketadi. Har bir insonning xatti-harakatlarida adovat borligi uchun ma'lum bir chiziq bor. Agressivlik, shuningdek, ota-bobolarimiz bo'lgan ovchilardan meros qilib olinadigan belgi bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday tabiat vayronagarchilik, zo'ravonlik va urushlarni rag'batlantirishi mumkin. Bunday holda, biz tajovuzning muqarrar rivojlanishi va uni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida gapiramiz. *Kattalar misolining ta'siri*. Bola ulg'ayganida va uning oldida otasi yoki onasining o'rnini ko'rganda, u kiyinishda, suhbatni o'tkazish usulida ularga taqlid qila boshlaydi. Agressiv xatti-harakatlarga taqlid qilish ham sodir bo'ladi. Agar bola muntazam ravishda otaonasining janjal qilayotganini, bir-biriga baqirayotganini ko'rsa, u bunday xatti-harakatlar normal deb hisoblaydi. *Ota-onalar uchun noto'g'ri model*. Kattalar o'z chaqalog'idan juda talabchan bo'lishganda, ular uni ayblashadi yoki to'g'ridan-to'g'ri bola boshqa bolalarga nisbatan tajovuzkor bo'lganligini, qanday qilib o'zgartirishni, jazolashni bilishini aytadilar. *O'zini bajara olmaslik tufayli paydo bo'lgan natija*. Biror kishi istalgan narsaga erishish yo'lida biron bir to'siqqa duch kelsa, u

o'zboshimchalik bilan atrof-muhitga va o'ziga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan tajovuzni keltirib chiqaradi. Va bunday xatti-harakatlar kamdan-kam hollarda yuz bersa yaxshi bo'ladi.

*Oiladagi vaziyat.* Masalan, otasiz yoki onasiz voyaga etgan bolalar boshqa odamlarga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo'lishlari mumkin. Yana bir variant - bu katta oilalar, bu erda aka-uka va opa-singillar o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Shuningdek, ota-onalar bolalarini qonunbuzarliklar uchun jazolash usullari katta ahamiyatga ega. Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.

a. O'ziga ijobiy baho berishga o'tishtirish, xavfsizlikni tekshirish. b. o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash; d. o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan gazabni tuzatish usullarga o'rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga o'rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish; e. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo'rttiruvchi jixozni belgilashga) o'rnatish.

**Xulosa.** Shunday qilib, agressiv xulq-atvor bola va o'smir yoshi uchun odatiy hodisa bo'lib qolgan. Bundan tashqari, agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoylashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Me'yorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressiyaning ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatli adaptiv va destruktiv - dezadaptiv. Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. (o'quv qo'llanma)T. O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi.2013. -143 b
2. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Ma'ruzalar matni.Jizzax PI. 2013.-141 b
3. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y.
4. Bolalarga o'smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed.
5. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.- 112s
6. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308311.

7. Karakulovich, J. A., & Ismoilovna, A. Z. (2021). PSYCHOLOGICAL STUDY OF EMOTIONS AND EMOTIONS IN WORLD PSYCHOLOGY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.
8. Абдуллаева, З.И. (2021). ИЗУЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНО-ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ. Вестник науки и образования, (8-2 (111)), 90-94. 8. G'oziev E.G'. Psixologiya. -Т., О'zМУ «Universitet», 2013